
“Malak” bolajonlarga o'z bag'rini ochdi



“Malak” bolajonlarga o'z bag'rini ochdi

Bugun Sarikanda mahalla fuqarolar yig'inida yana bitta nodavlat oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi. Bu o'tayotgan haftada yettinchi nodavlat oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilishidir. Taqdimot marosimida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev, tuman sektorlar rahabarlari va boshqa mutasaddiy idoralar vakillari ishtirok etishdi.

Muassasaning ochilishida Hamidaxon Qambarovanning hissasi cheksiz. Hamidaxon-opa salkam o'ttiz yil tarbiyachi, hamda maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi vazifalarida ishlab kelgan. Endi faoliyatini o'zining oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida davom ettirmoqchi.

Tadbirda so'z olgan tuman hokimi bunday tashabbuskor tadbirkorlarga minnatdorchilik bildirib, Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e'tiborga “labbay” deb javob berish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Zero barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor berilayotir.





-“Shunday sharoitlarni yaratib bergan va e'tiboridan bizlarni ham bahramand qilayotgan Prezidentimizga mingdan-ming rahmat, iloyim, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin, tumanimizdagi barcha obodonchilik ishlari bardavom bo'lsin”,-deya duoga qo'l ochishdi nuroniy otaxon Azamjon Barakayev.

Yangi ochilgan “Malak” maktabgacha ta'lim tashkilotida bolajonlar uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib qo'yilgan. Bu muassasada 15 nafar bolajonlar tarbiya olishadi. Tuman hududida yana uchta shunday nodavlat oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilishi ko'zda tutilgan.

